



SAUDIYA ARABISTONI VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDA IQTISODIY MUNOSABATLAR: INVESTITSİYALAR, SAVDO VA INFRATUZILMAVIY HAMKORLIK

Abdinabiye Sanjarbek Shuxratovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy

jarayonlar yo'nalishi magistranti

Email: sanjarbekabdinabiye@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21820406>

ARTICLE INFO

Received: 21st July 2026

Accepted: 22nd July 2026

Published: 31st July 2026

KEYWORDS

Saudiya Arabistoni, Markaziy Osiyo, investitsiyalar, tashqi savdo, iqtisodiy hamkorlik, infratuzilma, Vision 2030, ACWA Power, iqtisodiy integratsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy ko'rinishi ya'ni investitsiyalar, savdo va infratuzilmaviy hamkorlik yo'nalishlari kesimida tahlil qilingan. Tadqiqotda Saudiya Arabistonining "Vision 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati, mintaqada energetika va transport-logistika sohalaridagi hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari hamda iqtisodiy integratsiyaga ta'siri baholangan. Shuningdek, savdo tarkibini diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va qo'shma investitsiya loyihalarini kengaytirish iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari sifatida asoslab berilgan.

KIRISH

XXI asrda xalqaro iqtisodiy tizimning ko'p qutbli rivojlanishi, global geoiqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Jahon iqtisodiyotida energiya resurslari, logistika yo'laklari, investitsiya oqimlari va transport-kommunikatsiya infratuzilmalari ustidan nazorat strategik ustunlik omiliga aylangan bir sharoitda Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yangi geoiqtisodiy mazmun kasb etmoqda. Ushbu hamkorlik nafaqat ikki tomonlama iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash, balki Yevrosiyo makonida yangi iqtisodiy markazlarning shakllanishiga ham xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda Saudiya Arabistoni iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga qaratilgan "Vision 2030" strategiyasini amalga oshirilishi mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatida tub burilish yasadi. Neft eksportiga yuqori darajada bog'liq iqtisodiy modeldan innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energetika, logistika, sanoat va xalqaro investitsiyalarni rivojlantirishga asoslangan modelga o'tish jarayoni Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Mazkur strategiya

doirasida davlat suveren investitsiya jamg'armalari, xususan Public Investment Fund, Saudi Found for Development hamda boshqa moliyaviy institutlar orqali mintaqaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi izchil ortib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham o'z navbatida iqtisodiy modernizatsiya, transport-logistika tizimini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda yangi eksport bozorlarini shakllantirishni ustuvor rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilab kelmoqda. Mintaqaning geostrategik joylashuvi Sharq va G'arbni bog'lovchi tranzit hudud sifatida uning xalqaro logistika tizimidagi ahamiyatini oshirmoqda. Ayniqsa, global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi, geosiyosiy beqarorlik hamda transport marshrutlarining diversifikatsiyasi sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari Saudiya Arabistoni uchun istiqbolli iqtisodiy hamkor sifatida maydonga chiqmoqda. Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar uchta strategik yo'nalishda shakllanmoqda. Birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar energetika, yashil iqtisodiyot kabi ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilmoqda. Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy aloqalar eksport-import nomenklaturasining kengayishi hamda oziq-ovqat xavfsizligi, farmatsevtika, qurilish materiallari va xizmatlari bozori orqali rivojlanmoqda. Uchinchidan, transport va logistika infratuzilmasi sohasidagi hamkorlik Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi, multimodal logistika markazlari, temir yo'l va avtomobil transporti loyihalari bilan uzviy bog'liq holda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Ammo mavjud ilmiy adabiyotlarning aksariyatida ana shu davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar alohida yo'nalishlar kesimida o'rganilgan bo'lib, investitsiyalar, tashqi savdo va infratuzilmaviy hamkorlikning o'zaro integratsiyalashgan ta'siri yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, geoiqtisodiy transformatsiyalar hamda transport koridorlarining iqtisodiy samadorligi nuqtai nazaridan mazkur hamkorlikning institutsional asoslari bo'yicha ilmiy izlanishlar cheklanganligicha qolmoqda. Natijada Saudiya Arabistoni kapitalining Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarini modernizatsiya qilishdagi roli, qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish imkoniyatlari hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ta'siri yetarli darajada konseptual yoritilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy holatini geoiqtisodiy yondashuv asosida tahlil qilish, investitsiyalar, tashqi savdo va infratuzilmaviy hamkorlikning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda mintaqaviy iqtisodiyot nazariyalari, mintaqaviy integratsiya konsepsiyalari hamda geoiqtisodiy tahlil metodologiyasidan foydalanish orqali ana shu ikki mamlakat hamkorligining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari va istiqbollari kompleks ravishda baholanadi. Natijalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ikki davlat o'rtasidagi ekonomik munosabatlarining investitsiyalar, tashqi savdo hamda infratuzilmaviy hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini kompleks baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy xalqaro iqtisodiy nazariyalari, mintaqaviy integratsiya konsepsiyalari hamda geoiqtisodiy tahlil yondashuvlariga asoslangan. Tadqiqotning metodologiyasi zamonaviy xalqaro iqtisodiy nazariyalari, mintaqaviy integratsiya konsepsiyalari hamda geoiqtisodiy tahlil yondashuvlariga asoslangan.

Tadqiqotning metodologik bazasini institutsional iqtisodiyot nazariyasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar konsepsiyasi, xalqaro savdo nazariyalari, shu bilan birga infrastrukturaviy rivojlanishning endogen iqtisodiy o'sish modeliga ta'siri haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda aralash uslubiy yondashuvlar qo'llanildi, yondashuv sifat va miqdoriy tahlil usullarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy hamkorlikning ko'p qirrali xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Sifatni tahlillash jarayonida Saudiya Arabistonining "Vision 2030" strategiyasi, Markaziy osiyo mamlakatlarining milliy rivojlanish

strategiyalari, hukumatlararo kelishuvlar hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan rasmiy hujjatlar mazmuniy va institutsional tahliliy usullari orqali o'rganildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy hamkorlikni shakllantiruvchi siyosiy va institutsional omillarni aniqlash imkonini berdi. Miqdoriy tahlil bosqichida ikki davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqotda 2015-2025 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlardan foydalanish rejalashtirildi. Tadqiqotning asosiy tahlil birligi sifatida davlatlararo iqtisodiy hamkorlik loyihalari tanlandi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar Jahon banki, Saudiya Arabistoni Investitsiyalar vazirligi, Markaziy Osiyo davlatlari statistika agentliklari va markaziy banklari ma'lumotlariga asoslandi. Xususan, energetika, transport-logistika, yashil energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat va raqamli infratuzilma sohalaridagi investitsiy loyihalari o'rganildi. Shuningdek eksport-import tarkibi, investitsiya oqimlari, transport koridorlari hamda infrastrukturaviy loyihalarning iqtisodiy samaradorligi o'zaro taqqoslandi. Tahlil jarayonida bir nechta ilmiy usullardan kompleks foydalanildi. Qiyosiy tahlil usullari orqali Markaziy Osiyo davlatlarining Saudiya Arabistoni bilan iqtisodiy aloqalari o'zaro solishtirildi hamda hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Statistik tahlil yordamida investitsiya hajmlari, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import tarkibi infratuzilmaviy loyihalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi baholandi. Trend tahlili iqtisodiy hamkorlikning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari SWOT tahlili usuli yordamida Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlikning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy tahdidlar tizimli ravishda baholandi. Tadqiqot ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar triangulyatsiya usulidan foydalanildi. Ya'ni bir xil iqtisodiy ko'rsatkichlar bir nechta mustaqil xalqaro ma'lumotlar bazalari orqali o'zaro tekshirildi va taqqoslandi. Bu esa statistik xatoliklar ehtimolini kamaytirish hamda xulosalarning obyektivligini oshirish imkonini berdi.

Tadqiqotning mantiqiy modeli uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda ana shu davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning institutsional-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda investitsiya oqimlari, tashqi savdo ko'rsatkichlari va infratuzilmaviy loyihalar bo'yicha statistik tahlil amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda esa olingan natijalar umumlashtirilib, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda transport-logistika hamkorligi kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodologik usullarda yondashuv Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni faqat statistic ko'rsatkichlar asosida emas, balki ularning geoiqtisodiy, insitutsional va strategik omillar bilan o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Shu sababli tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1-qism. Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2016-yildan boshlab Saudiya Arabistonining tashqi iqtisodiy siyosatida kuzatilgan transformatsiyalar Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarning sezilarli faollashuviga olib keldi. Bunda Saudiya Arabistonining "Vision 2030" strategiyasi asosiy institusional omil bo'lib xizmat qilmoqda, ushbu strategiya iqtisodiyotning neft sektoriga qaramlikdan chiqarish, xorijiy investitsiyalar geografiyasini kengaytirish va xalqaro infratuzilmaviy loyihalarda faol ishtirok etishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

1-jadval.

Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyodagi asosiy investitsiya loyihalari

Mamlakat	Asosiy investor	Loyiha yo'nalishi	Holati
O'zbekiston	ACWA Power	Shamol va quyosh elektr stansiyalari,	Amalga oshirilmoqda

		energiya saqlash tizimlari	
O'zbekiston	Saudi Fund for Development	Ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalar	Moliyalashtirilmoqda
Qozog'iston	ACWA Power	Yashil energetika va shamol elektr stansiyalari	Rivojlanish bosqichida
Qirg'iziston	Saudi Fund for Development	Transport va ijtimoiy infratuzilma	Moliyalashtirilmoqda
Tojikiston	Saudi Fund for Development	Energetika va yo'l infratuzilmasi	Amalga oshirilmoqda

Tahlil natijalari Saudiya Arabistoni siyosatining tarmoq jihatidan yuqori darajada diversifikatsiyalashayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalar tarkibida qayta tiklanuvchi energetika, transport-logistika va elektr energetikasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan. Ayniqsa, ACWA Power tomonidan O'zbekiston va Qozog'istonda amalga oshirilayotgan shamol va quyosh elektr stansiyalari loyihalari mintaqada "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Saudi Fund for Development tomonidan moliyalashtirilayotgan transport, suv ta'minoti va ijtimoiy infratuzilma loyihalari Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga ko'maklashmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Saudiya kapitalining Markaziy Osiyoga kirish kelishi an'anaviy moliyaviy investitsiyalarda ko'rsa strategik investitsiyalar shaklida amalga oshirilmoqda. Investitsiyalar asosan qayta tiklanuvchi energetika, elektr energetikasi, transport-logistika, Shahar infratuzilmasi, suv xo'jaligi va qishloq xo'jaligi loyihalariga yo'naltirilgan. Bu esa Saudiya Arabistoni investitsiya siyosatining uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlikni shakllantirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston va O'zbekiston Saudiya investorlari uchun eng jozibali bozorlar sifatida shakllanmoqda. Bunga mazku mamlakatlarning nisbatan yirik iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, islohotlar jarayoni hamda transport-logistika tizimlarining rivojlanganligi sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda energetika va yashil iqtisodiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Saudiya kapitalining kirib kelishiga qulay investitsion muhit yaratmoqda. Investitsion hamkorlikning yana bir muhim jihati shundaki, Saudiya Arabistoni moliyaviy instutlari kredit va grant mexanizmlarini ham faol qo'llamoqda. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarida infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2-qism. Savdo aloqalarining tarkibiy xususiyatlari

Olingan natijalar Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi so'nggi yillarda o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq savdo tuzilmasi hali ham diversifikatsiyalashuvning boshlang'ich bosqichida ekanligi kuzatiladi. So'nggi yillarda Sausiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida yirik investitsiya loyihalari muhim katalizator vazifasini bajarmmoqda. Shuningdek, Saudiya Arabistonining yetakchi energetika kompaniyasi ACWA Power tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazku kompaniya Sirdaryo viloyatida (1-rasm) quvvati 1500 MVt bo'lgan zamonaviy kombinatsiyalangan issiqlik elektr stansiyasini qurish bo'yicha loyihani amalga oshirmoqda.

**1-rasm. Sirdaryo CCGT**

Ushbu loyiha qiymati 1.2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, u O'zbekiston energetika sektoriga jalb qilingan eng yirik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari 2024-yilda International Finance Corporation ACWA Power kompaniyasiga O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini rivojlantirish uchun 240 millik AQSh dollari miqdorida islomiy moliyalashtirish ajratdi. Bu moliyalashtirish doirasida umumiy quvvati 1GVt quyosh fotoelektr stansiyalari, 668 MVt batareya energiyasini saqlash tizimi (BESS) hamda 500 km yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari barpo etilishi rejalashtirilgan. Loyihalar ishga tushirilgach yiliga taxminan 2400 GVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va 1.3 million tonna CO₂ emissiyasining oldi olinishi kutilmoqda.

Yana bir investorlik ishlaridan biri, 2024-yil oktabr oyida ACWA Power qiymati 1.78 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lgan yangi investitsiya bitimlarini imzoladi. Ularning tarkibiga O'zbekistondagi quyosh energetikasi loyihalari uchun 402 million AQSh dollari miqdoridagi sharoit tamoyillariga mos kredit ham kiradi. Uchbu moliyalashtirish Saudiya Kapitalining Markaziy Osiyo "yashil iqtisodiyot" va energetika infratuzilmasini rivojlantirishdagi strategik rolini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Mazku investitsiya loyihalari bevosita savdo ko'rsatkichlarini ham qo'llab-quvvatlamogda. Energetika obyektlarining qurish jarayonida zamonaviy uskunalar, turbinalar, elektr jihozlari, qurilish materiallari va muhandislik xizmatlari importi hajmi ortmoqda. Loyiha foydalanishga topshirilgach esa elektr energetikasi tizimining samaradorligi oshishi sanoat ishlab chiqarishining kengayishiga, eksport salohiyatining ortishiga hamda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashishiga xizmat qiladi. Shu sababli Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning faqat savdo aylanmasi orqali emas, balki investitsiyalar, texnologiyalar transferi va infratuzilmaviy rivojlanishning o'zaro uyg'unlashgan tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

2-jadval.**Saudiya Arabistoni investorlari va O'zbekiston hududidagi loyihalar**

Loyiha	Investor	Mamlakat	Qiymati	Ahamiyati
Sirdaryo CCGT (1500 MW)	ACWA Power	O'zbekiston	1.2 mlrd AQSh dollari	Energetika xavfsizligi va

				sanoat rivoji
Quyosh elektr stansiyalari + BESS	ACWA Power International Finance Corporation	O'zbekiston	240 mln AQSh dollari (IFCmoliyalashtirishi)	1 GVt quyosh energetikasi, 668 MVt BESS
Quyosh loyihalari uchun islomiy bank kreditlari	International Finance Corporation	O'zbekiston	402 mln AQSh dollari	Qayta tiklanuvchi energetika investitsiyalarini kengaytirish

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar so'nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Mazkur hamkorlik endilikda faqat an'anaviy savdo aloqalari bilan cheklanib qolmay, balki strategik investitsiyalar, energetika, transport-logistika, qayta tiklanuvchi energiya va infratuzilmaviy loyihalarni qamrab oluvchi ko'p qirrali iqtisodiy sheriklik modeliga aylanmoqda. Saudiya Arabistonining Vision 2030 strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy diversifikatsiya siyosati Markaziy Osiyo davlari bilan investitsiyaviy va savdo hamkorligini kengaytirish uchun muhim institutsional asos yaratmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki Saudiya kapitalining Markaziy Osiyoga, ayniqda O'zbekistonga yo'naltirayotgan investitsiyalari asosan energetika va "yashil iqtisodiyot" tarmoqlariga qaratilganini ko'rsatadi. ACWA Power tomonidan amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, shuningdek xalqaro moliyaviy instutlar ishtirokidagi investitsiyalar mintaqada energiya xavfsizligini mustahkamlash, ihlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Yuqoridagi loyihalar nafaqat to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirmoqda, balki zamonaviy texnologiyalar transferini, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahallaiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham hissa qo'shmoqda. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki unda Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar investitsiyalar, savdo va infratuzilmaviy hamkorlikning o'zaro bog'liqligini nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilindi. Olingan xulosalar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishm iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda yangi investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirdarya CCGT. <https://www.acwapower.com/en/what-we-do/projects/sirdarya-ccgt/>
2. Umumiy Quvvati 1500 MVt bo'lgan ACWA Power Sirdaryo bug'-gaz qurilmalisi Mustaqil Elektr Stantsiyasi O'zbekiston Respublikasi. 1-jild notexnik hisobot. Oktabr 2020-yil.
3. Gavharshodbegim Xolmatova. O'zbekiston - Saudiya Arabistoni: Investitsiya diplomatiyasi va geoiqtisodiy strategiyaning yangi bosqichi. <https://uza.uz/posts/853828>
4. O'zbekiston - Saudiya Arabistoni savdo-iqtisodiy hamkorligi ko'lami kengaymoqda. 2024. <https://gov.uz/oz/news/view/28807>
5. O'zbekiston va Saudiya o'rtasida 27 milliard dollarlik sheriklik muhokama qilindi. 2025. <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/163725>